

**O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi Raisi
o‘rinbosari S.Eshmatovning 2022-yil aprel oyi uchun faoliyat
samaradorligi hamda maqsadli vazifalarga erishishini baholashning
asosiy mezonlari**

*(hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va soliq qarzini qisqartirish
masalalari)*

Ehtiyojmand oilalarga ko‘rsatilayotgan ko‘makni monitoring qilish va doimiy daromad manbaini yaratish yo‘nalishida 366 ta doimiy daromad manbai yaratildi. Bu belgilangan rejaga nisbatan 114%ni tashkil etadi.

Bundan tashqari, 2022-yil aprel oyida soliq qarzini o‘tgan oyga nisbatan 10 foiz qisqartirish choralarini ko‘rish yo‘nalishida belgilangan reja 124% ga bajarildi. (700 mlrd so‘m).

2022-yil aprel oyida “Temir daftar”ga kiritilgan oilalarni ro‘yxatdan chiqarish choralarini ko‘rish bo‘yicha bajarilgan ishlar darajasi 128,3 %ni tashkil etdi. Ya’ni 300 ta oila Temir daftar”dan chiqarildi.

Yashirin ish o‘rinlarini legallashtirish hisobiga daromad solig‘i to‘lovchilari sonini oshirish bo‘yicha reja 102%ga bajarilib 45 ming nafar soliq to‘lovchi faoliyati rasmiy sektorga o‘tkazildi.

«Ijro.gov.uz» ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi orqali topshiriq va vazifalar ijrosining ta’minlanishi esa 100%ga bajarildi.